

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH
Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta‘minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibligi: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





G'YOSOV ILXOM KARIMOVICH

Qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslari.....287

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari....300

SHARIPOV LAZIZ AKTAM O'G'LI

Comparing parametric and non-parametric efficiency measurement under data quality constraints: stochastic frontier and dea evidence from smallholder sweet sorghum farms in Uzbekistan.....306

KARIMOVA MUHAYYO ORIF QIZI

Qandolatchilik mahsulotlarining sifat nazoratini oshirishda statistik usullardan foydalanishni takomillashtirish.....314

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O'G'LI

Mintaqada intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining tatbiq etish.....322

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari.....328

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning aholi bandligiga ta'siri.....340

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....347

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligi: institutsional tuzilma va evolyutsiya bosqichlar.....356

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASHRAPOV AHLIDDIN TURSUNALIEVICH

Farg'ona viloyatining unumdorligi past tuproq – iqlim sharoiti uchun mos, yuqori hosilli o'rik navlarini tanlash.....366

ESHPUATOV DOSTONBEK BOXODIR O'G'LI

Iqlim o'zgarishining paxta va bug'doy hosildorligiga ta'siri: O'zbekiston tumanlari bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili (2015–2024).....371

RUZMETOV UMID ISMAILOVICH, ULUGOVA SAFARGUL FAYZULLAEVNA

Toshkent viloyati Bo'stonlik tumani sharoitida dorivor enotera (Oenothera Biennis L.) o'simligini yetishtirish uchun tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash.....385

ПАВШАНОВА Н.А.

Урожайность и продуктивность совмещённых посевов сортов маша с хлопчатником в условиях Ташкентской области.....391

CHARIEVA XILAL DO'STMURATOVNA, TADJIEV MARDONQUL, DJURAEV BAYNIYAZ CHARIEVICH, BEGIMQULOV BEHZOD O'ROLOVICH

Ingichka tolali g'o'zaning konkurs nav sinovi ko'chatzoridagi navlar va tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilari.....398





MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: dilrabomavlonova2706@gmail.com

ORCID: 0009-0005-2443-6890

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Klasterlashning hududiy iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishdagi roli yoritilgan. Tadqiqotda klasterlash mexanizmlarining institutsional, tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilgan. Mintaqaviy klasterlarni shakllantirishda hududning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, mehnat, infratuzilmaviy va innovatsion salohiyatini hisobga olish zarurligi asoslangan. Shuningdek, davlat, biznes, ilmiy-ta'lim muassasalari va boshqa manfaatdor subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish klasterlarning barqaror faoliyat yuritishining muhim sharti sifatida baholangan. Tadqiqot natijasida mintaqa iqtisodiyotida klasterlashni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va konseptual yo'nalishlari tizimlashtirilgan hamda klaster mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish, klaster, klasterlash mexanizmi, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish, innovatsiya, kooperatsiya, institutsional muhit, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В статье исследованы концептуальные основы совершенствования механизмов кластеризации в целях обеспечения устойчивого развития региональной экономики. Раскрыта роль кластеризации в стимулировании экономического роста территорий, повышении конкурентоспособности, развитии кооперационных связей между производственными и сервисными субъектами, а также эффективном использовании имеющихся ресурсов. Механизмы кластеризации рассмотрены как взаимосвязанная система организационных, экономических, институциональных и инновационных компонентов. Обоснована необходимость учета природно-ресурсного, производственного, трудового, инфраструктурного и инновационного потенциала региона при формировании и развитии территориальных кластеров. Особое внимание уделено развитию взаимодействия между государственными органами, субъектами бизнеса, научно-образовательными учреждениями и другими заинтересованными участниками кластерных отношений. В результате исследования систематизированы основные принципы и концептуальные направления развития кластеризации в региональной экономике. Разработаны научно-практические подходы к совершенствованию кластерных механизмов посредством усиления межотраслевой кооперации, инновационной активности, институциональной поддержки, эффективного использования ресурсов и повышения конкурентоспособности. Полученные результаты показывают, что комплексный подход к кластеризации способствует формированию устойчивых региональных экономических систем и расширению возможностей долгосрочного социально-экономического развития территорий.

Ключевые слова: региональная экономика, устойчивое развитие, кластер, механизм кластеризации, конкурентоспособность, региональное развитие, инновации, кооперация, институциональная среда, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the conceptual foundations for improving clustering mechanisms aimed at ensuring sustainable development of regional economies. The study highlights the role of clustering in promoting regional economic growth, enhancing competitiveness, strengthening cooperation among production and service entities, and improving the efficient use of available resources. The organizational, economic, institutional, and innovation components of clustering





mechanisms are considered as an interconnected system. Particular attention is paid to the need to account for the natural-resource, production, labor, infrastructure, and innovation potential of a region when establishing and developing regional clusters. The study also emphasizes cooperation among government institutions, businesses, research and educational organizations, and other stakeholders as an important condition for the sustainable functioning of clusters. Based on the research, the key principles and conceptual directions for developing clustering in regional economies are systematized. The article proposes scientific and practical approaches to improving clustering mechanisms through the strengthening of inter-sectoral cooperation, innovation activity, institutional support, resource efficiency, and competitiveness. The findings demonstrate that an integrated approach to clustering can contribute to the formation of sustainable regional economic systems and create additional opportunities for long-term socio-economic development.

Keywords: regional economy, sustainable development, cluster, clustering mechanism, competitiveness, regional development, innovation, cooperation, institutional environment, economic efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv va iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida mintaqalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish resurslarini hududiy jihatdan oqilona birlashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda klasterlash mexanizmlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash mintaqada o'zaro bog'liq korxonalar, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, infratuzilma tashkilotlari va davlat institutlarining yagona iqtisodiy tizim doirasida hamkorlik qilishini ta'minlaydi. Bunday hamkorlik ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, texnologiyalar va bilimlar almashinuvini tezlashtirish hamda innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli klasterlashni faqat korxonalarni hududiy jamlash vositasi sifatida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy klasterlarning samaradorligi hududning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, mehnat, infratuzilmaviy va innovatsion salohiyatidan qay darajada foydalanilayotganiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, barcha hududlar uchun yagona klaster modelini qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Har bir mintaqaning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mavjud resurslari, tadbirkorlik muhiti, mehnat bozori va bozor infratuzilmasini hisobga olgan holda klasterlashning moslashtirilgan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Klasterlashning yana bir muhim jihati uning innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog'liqligidir. Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, klaster doirasida kichik va o'rta biznes subyektlarining yirik korxonalar bilan hamkorligi ularning bozor imkoniyatlarini kengaytiradi va mahalliy qiymat zanjirlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish





nuqtayi nazaridan klasterlashning iqtisodiy, institutsional, tashkiliy va innovatsion tamoyillarini o'zaro uyg'unlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunda davlat tomonidan yaratiladigan institutsional sharoitlar, xususiyl sektor tashabbuslari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari salohiyati hamda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi klasterlarning uzoq muddatli samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida klasterlashning iqtisodiy mohiyati va mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni, klaster shakllanishining asosiy tamoyillari, uning institutsional va tashkiliy mexanizmlari hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqiladigan konseptual yondashuvlar mintaqalarda klaster siyosatini takomillashtirish, mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, innovatsion faollikni oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish va hududlarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlaridan foydalanish masalasi so'nggi yillarda hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlik bo'yicha tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda klasterlar faqat bir hududda joylashgan korxonalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, ilmiy-ta'lim muassasalari va institutsional tuzilmalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilinmoqda. Porterning klaster konsepsiyasi keyingi tadqiqotlarda hududiy raqobatbardoshlik, innovatsiya va unumdorlik bilan bog'langan holda rivojlantirildi. Zamonaviy tadqiqotlarda klasterlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bir xil emasligi ta'kidlanadi. Kosfeld va hamkorlari tadqiqotida klaster ixtisoslashuvining afzalliklari ayrim sanoat tarmoqlarida, xususan, avtomobilsozlik, mashinasozlik, kimyo va farmatsevtika sohalarida kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlangan. Mualliflar Marshall tipidagi tashqi iqtisodiy samaralar hududiy unumdorlik dinamikasida muhim rol o'ynashini, biroq barcha klaster siyosati modellari bir xil darajada samarali emasligini ko'rsatadi. Bu yondashuv mintaqaviy klasterlarni shakllantirishda hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini hisobga olish zarurligini asoslaydi. [1] Speldekamp va hammualliflar klasterlar bo'yicha ilmiy adabiyotlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilib, klasterlarning uchta muhim o'lchami — geografik yaqinlik, tarmoqlararo aloqalar va institutsional muhit — o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, klaster faoliyatining natijadorligini faqat alohida omillar orqali tushuntirish yetarli emas, chunki klaster samaradorligi bir nechta shartlarning kombinatsiyasi orqali





shakllanadi. Mazkur yondashuv mintaqaviy klasterlashning konseptual asoslarini ishlab chiqishda tizimli yondashuvdan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. [2] Njøs va Jakobsenning tadqiqotlarida klaster siyosati hududiy rivojlanish siyosati bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ularning yondashuvida klaster tashabbuslarining samaradorligi hududdagi mavjud iqtisodiy salohiyat, bilimlar bazasi, innovatsion muhit va institutsional sharoitlar bilan belgilanadi. Bu fikr mintaqada klasterlarni sun'iy ravishda shakllantirishdan ko'ra, mavjud iqtisodiy ixtisoslashuv va biznes aloqalariga tayangan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Rossiya va boshqa MDH mamlakatlarida klaster siyosatining rivojlanishi ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Rodionova, Krejdenko va Mądry Rossiya Federatsiyasidagi sanoat klasterlari siyosatini o'rganib, klaster siyosatining bir necha bosqichlarini ajratgan hamda klasterlarning hududiy joylashuvi, ishtirokchilar soni va bandlik ko'rsatkichlarini tahlil qilgan. Mualliflar davlatning klasterlarni shakllantirishdagi rolini yuqori baholagan holda, ayrim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi past bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatgan. [3] Kolchinskaya, Limonov va Stepanova Rossiya hududlarida klasterlarning rolini baholash masalasiga e'tibor qaratib, 191 ta klaster haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirgan. Tadqiqotda klasterlarni identifikatsiya qilish va ularning hududiy rivojlanishga ta'sirini baholashdagi metodologik muammolar ko'rsatib berilgan. Mualliflarning yondashuvi klaster siyosatini ishlab chiqishda avvalo hududlarda mavjud klaster salohiyatini aniqlash va uning miqdoriy hamda hududiy ko'rsatkichlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. [4] Rossiyada klaster tashabbuslarining evolyutsiyasini o'rgangan tadqiqotlarda milliy klaster siyosati, klasterning faoliyat davri, hududlararo yaqinlik va innovatsion muhitning klaster tashabbuslariga ta'siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlatning klaster siyosati yangi klaster tashabbuslarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, hududlarning innovatsion salohiyati va qo'shni hududlardagi klasterlarning rivojlanishi ham klasterlashuv jarayonini rag'batlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lgan. [5] Klasterlash masalasining institutsional-huquqiy jihatlari ham zamonaviy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Gromova klasterlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tadqiq qilib, davlat tomonidan klaster faoliyatini rag'batlantirishning imtiyozlar, kafolatlar va maxsus huquqiy rejimlar orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Muallif yagona huquqiy yondashuvni shakllantirish klasterlarning barqaror rivojlanishi uchun muhim shart ekanini asoslaydi. [6] OECDning hududiy rivojlanish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarida ham hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish masalasi markaziy o'rin egallaydi. 2023-yilgi OECD Regional Outlook hisobotida hududiy tengsizliklarni kamaytirish, unumdorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlarni shakllantirish va ko'p darajali boshqaruvni takomillashtirish o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan. Mazkur yondashuv klasterlash siyosatini alohida tarmoq siyosati emas, balki hududiy rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida ko'rish imkonini





beradi. [7] OECDning 2023-yilda qabul qilingan Regional Development Policy Recommendation hujjatida hududiy rivojlanish siyosatining strategiya, hududiy ko'lam, hamkorlik, barqarorlik, ma'lumotlardan foydalanish, ko'p darajali boshqaruv, resurslar va natijadorlik kabi o'nta o'zaro to'ldiruvchi yo'nalishi belgilangan. Ushbu yondashuv klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishda davlat, biznes, ilmiy muassasalar va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham klasterlashning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda faollashdi. Urdushev, Mavlyanov va Eshankulov klasterlash jarayonlarini raqobatbardoshlik, unumdorlik, innovatsiya va eksport salohiyati bilan bog'lagan holda tadqiq qilgan. Mualliflar klasterlashning iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. [8] O'zbekiston iqtisodiyotida klaster tizimining rivojlanishini o'rgangan zamonaviy tadqiqotlarda klasterlar investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish vositasi sifatida baholanmoqda. Xususan, 2022–2024-yillar bo'yicha olib borilgan tahlillarda klaster ishlab chiqarishi, investitsiya oqimlari va eksport ko'rsatkichlarining o'sish tendensiyalari qayd etilgan. [9] Qishloq xo'jaligi klasterlari bo'yicha yangi tadqiqotlarda esa ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va eksport jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Bunday yondashuv klasterlarning nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki bandlik va aholi daromadlarini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy rolini ham kuchaytirishini ko'rsatadi. [10] Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda klasterlashning hududiy yaqinlik, kooperatsiya, innovatsionlik, ixtisoslashuv, institutsional qo'llab-quvvatlash va raqobatbardoshlik kabi tamoyillari yetarlicha asoslangan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismida klasterlarning alohida tarmoqlar yoki davlatlar misolida rivojlanishi o'rganilgan bo'lsa-da, mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan klasterlash mexanizmlarining yagona konseptual modeli yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi klasterlashni oddiy hududiy konsentratsiya shakli sifatida emas, balki resurslar, korxonalar, ilmiy-ta'lim muassasalari, davlat va bozor institutlari o'rtasidagi o'zaro bog'langan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida takomillashtirishga qaratiladi. Bu yondashuv mintaqaning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud salohiyatini hisobga olgan holda barqaror rivojlanishning yangi klaster modelini shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tizimli va kompleks yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda klasterlash jarayoni hududdagi korxonalar, tarmoq subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari,



infratuzilma tashkilotlari va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv klasterlarning mintaqaviy iqtisodiy o'sish, innovatsion faollik, raqobatbardoshlik va resurslardan samarali foydalanishga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Tadqiqotda tizimli, institutsional, hududiy, qiyosiy va iqtisodiy-statistik yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirildi. Tizimli yondashuv orqali klasterlashning asosiy elementlari, ular o'rtasidagi funksional va iqtisodiy bog'liqliklar hamda klasterning mintaqqa iqtisodiy tizimidagi o'rni aniqlanadi. Institutsional yondashuv klasterlarni rivojlantirishda davlat siyosati, huquqiy muhit, biznes subyektlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni baholashga xizmat qiladi. Hududiy yondashuv esa klasterlarni shakllantirishda mintaqaning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish, mehnat, infratuzilma va innovatsion salohiyatini hisobga olish imkonini beradi. Tadqiqotning axborot bazasini mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, sanoat va xizmatlar sohasi statistikasi, investitsiyalar, bandlik, ishlab chiqarish hajmi, eksport, innovatsion faoliyat hamda korxonalar soniga oid ma'lumotlar tashkil etadi. Shuningdek, klasterlash va hududiy rivojlanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari va tegishli ilmiy adabiyotlardan foydalaniladi. Klasterlashning mintaqqa iqtisodiyotiga ta'sirini baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar guruhidan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi:

1-jadval

Klasterlashning mintaqqa iqtisodiyotiga ta'sirini baholashning asosiy ko'rsatkichlar guruhi

Ko'rsatkichlar guruhi	Asosiy indikatorlar
<i>Iqtisodiy rivojlanish</i>	YAHM, sanoat ishlab chiqarishi, mehnat unumdorligi
<i>Investitsion faollik</i>	Asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar
<i>Innovatsion rivojlanish</i>	Innovatsion korxonalar soni, yangi texnologiyalar, R&D xarajatlari
<i>Tadbirkorlik muhiti</i>	Faol korxonalar soni, kichik biznes subyektlari, yangi korxonalar
<i>Bandlik</i>	Ish bilan band aholi, yangi ish o'rinlari, mehnat unumdorligi
<i>Tashqi iqtisodiy faoliyat</i>	Eksport hajmi, eksport qiluvchi korxonalar soni
<i>Infratuzilma</i>	Transport, logistika, energetika va raqamli infratuzilma

Klasterlash samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlar iqtisodiy, innovatsion, investitsion, ijtimoiy va institutsional guruhlarga ajratiladi. Ushbu guruhlash klasterlarning faqat ishlab chiqarish hajmiga emas, balki mintaqaning uzoq muddatli barqarorligiga ta'sirini ham aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda dastlab deskriptiv-statistik tahlil usulidan foydalanilib, asosiy ko'rsatkichlarning

o'rtacha qiymati, minimal va maksimal darajalari, o'sish sur'atlari hamda dinamik o'zgarishlari aniqlanadi. Ushbu bosqich klasterlash jarayonining mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini dastlabki baholash imkonini beradi. Keyingi bosqichda qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Bunda klasterlash darajasi yuqori va nisbatan past bo'lgan hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Mazkur usul orqali klasterlashning hududiy iqtisodiy o'sish, investitsiya faolligi, bandlik va innovatsion rivojlanishdagi farqlarga ta'siri aniqlanadi. Klasterlash va mintaqa iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlildan foydalaniladi. Bunda klasterlashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan YAHM o'sishi, investitsiyalar, bandlik, eksport va innovatsion faollik o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsientlari hisoblanadi. Korrelyatsiya koeffitsientining musbat qiymati klasterlash ko'rsatkichlari bilan tegishli iqtisodiy natija o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni, manfiy qiymati esa teskari bog'liqlikni anglatadi. Tadqiqotning empirik qismida zarur hollarda ko'p omilli regressiya modelidan foydalanish mumkin. Modelning umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 CL + \beta_2 INV + \beta_3 INN + \beta_4 EMP + \varepsilon$$

Mazkur model orqali klasterlashning mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri boshqa muhim omillarni hisobga olgan holda baholanadi. Ayniqsa, β_1 koeffitsientining qiymati klasterlashning natijaviy iqtisodiy ko'rsatkichga ta'sir yo'nalishi va nisbiy kuchini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotda SWOT-tahlil usulidan foydalanish orqali mintaqaviy klasterlashning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda potensial tahdidlar aniqlanadi. SWOT natijalari asosida klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari shakllantiriladi. Bunda ishlab chiqarish kooperatsiyasi, innovatsion infratuzilma, investitsiya imkoniyatlari, malakali kadrlar, logistika va institutsional qo'llab-quvvatlash asosiy yo'nalishlar sifatida baholanadi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida ekspert baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanib, klasterlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Bunda klaster ishtirokchilari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy qiymat zanjirlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil → statistik baholash → qiyosiy va korrelyatsion tahlil → ekonometrik baholash → SWOT-tahlil → ilmiy-amaliy takliflar ketma-ketligi asosida shakllantiriladi. Ushbu kompleks metodologik yondashuv klasterlashning mintaqa iqtisodiyotidagi o'rnini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash va hududning o'ziga xos iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda klasterlash mexanizmlarining samaradorligi, avvalo, hududdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, investitsiya, innovatsiya va mehnat resurslarining o'zaro integratsiyalashuv darajasiga bog'liq. Klasterlashning iqtisodiy mohiyati alohida korxonalar faoliyatini mustaqil ravishda rivojlantirishdan ko'ra, ular o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kuchaytirish va yagona qiymat yaratish zanjirini shakllantirish orqali yuqori iqtisodiy natijaga erishishdan iborat. Tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mintaqaviy klasterlarning samaradorligini faqat korxonalar soni bilan baholash yetarli emas. Bunda klaster ishtirokchilarining o'zaro aloqalari, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, investitsion faollik, innovatsion mahsulotlar yaratish, eksport salohiyati, malakali mehnat resurslari va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasini birgalikda hisobga olish zarur. Shu sababli tadqiqotda klasterlash samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratildi: iqtisodiy, investitsion, innovatsion, ijtimoiy va institutsional samaradorlik.

1-jadval

Mintaqaviy klasterlash samaradorligini baholashning asosiy indikatorlari

Baholash yo'nalishi	Asosiy indikatorlar	Klasterlashdagi iqtisodiy ahamiyati
Iqtisodiy samaradorlik	YAHM, sanoat ishlab chiqarishi, mehnat unumdorligi	Hudud iqtisodiy o'sishini tezlashtiradi
Investitsion faollik	Asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar	Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantiradi
Innovatsion rivojlanish	Innovatsion korxonalar, R&D xarajatlari, yangi texnologiyalar	Texnologik yangilanishni jadallashtiradi
Tadbirkorlik	Faol korxonalar, kichik biznes subyektlari	Ichki kooperatsiya va raqobatni kuchaytiradi
Bandlik	Yangi ish o'rinlari, bandlik darajasi	Aholi daromadlari va ijtimoiy barqarorlikni oshiradi
Eksport	Eksport hajmi, eksport qiluvchi korxonalar	Mintaqaning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi
Institutsional muhit	Davlat ko'magi, PPP, ilmiy-biznes hamkorligi	Klasterlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi
Infratuzilma	Logistika, transport, energetika, raqamli infratuzilma	Klaster ichidagi tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi

Manba: muallif ishlanmasi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, klasterlash samaradorligini bitta ko'rsatkich orqali aniqlash ilmiy jihatdan cheklangan yondashuv hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish hajmining o'sishi klaster faoliyatining ijobiy natijasini ko'rsatishi mumkin, biroq agar ushbu o'sish innovatsiyalar, bandlik va eksport bilan qo'llab-quvvatlanmasa, uning uzoq muddatli barqarorligi past bo'lishi





mumkin. Shu nuqtayi nazardan, klaster samaradorligi ko'p komponentli tizim sifatida baholanishi lozim. adqiqot natijalariga ko'ra, klasterlashning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri bevosita va bilvosita kanallar orqali shakllanadi. Bevosita ta'sir ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishi, resurslardan birgalikda foydalanish, xarajatlarning qisqarishi va mehnat unumdorligining oshishi orqali namoyon bo'ladi. Bilvosita ta'sir esa innovatsiyalar tarqalishi, yangi korxonalar tashkil etilishi, malakali kadrlar shakllanishi, investitsiyalarning ko'payishi va eksport imkoniyatlarining kengayishi orqali yuzaga keladi. Tadqiqot davomida klasterlashning barqaror rivojlanishga ta'sirini belgilovchi asosiy tamoyillar tizimlashtirildi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir tamoyilning yetarli darajada shakllanmasligi klasterning umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval

Mintaqaviy klasterlashning asosiy tamoyillari va ularning iqtisodiy natijalari

№	Tamoyil	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Hududiy yaqinlik	Korxonalar va institutlarning geografik yaqinligi	Logistika xarajatlari kamayadi
2	Kooperatsiya	Korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari	Qiymat zanjiri shakllanadi
3	Raqobat	Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi sog'lom raqobat	Mahsulot sifati oshadi
4	Innovatsionlik	Yangi texnologiyalarni joriy etish	Mehnat unumdorligi ortadi
5	Ixtisoslashuv	Hududning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish	Resurslardan samarali foydalaniladi
6	Integratsiya	Biznes, davlat va ilmiy muassasalar hamkorligi	Institutsional samaradorlik oshadi
7	Resurs samaradorligi	Mavjud resurslardan kompleks foydalanish	Xarajatlar optimallashtiriladi
8	Barqarorlik	Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanat	Uzoq muddatli rivojlanish ta'minlanadi

Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, klasterlashning barqaror rivojlanishga ta'siri ko'p jihatdan hududiy ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasiga bog'liq. Mintaqada bir-biri bilan iqtisodiy jihatdan bog'langan korxonalar mavjud bo'lsa, ularni yagona klaster tizimiga birlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq klasterlashni faqat ma'muriy qarorlar asosida tashkil etish yetarli emas. Klaster real iqtisodiy manfaat, bozor talabi va ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'tkazilgan tahlillar natijasida mintaqaviy klasterlashning samaradorligini belgilovchi bir nechta muhim qonuniyatlar aniqlandi.





Birinchiidan, klasterlashning iqtisodiy samarasi korxonalar sonidan ko'ra ular o'rtasidagi aloqalar intensivligiga ko'proq bog'liq. Shu sababli klaster siyosatida miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari kooperatsiya darajasini o'lchaydigan indikatorlardan foydalanish zarur.

Ikkinchiidan, innovatsion rivojlanish klasterlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va biznes o'rtasidagi aloqalar kuchaygan sari yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati ortadi.

Uchinchiidan, investitsiyalar klasterlashning moddiy asosini shakllantiradi. Investitsion resurslarning yetishmasligi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

To'rtinchiidan, klasterlashning ijtimoiy samarasi bandlik va aholi daromadlari orqali namoyon bo'ladi. Klasterlar yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlarining paydo bo'lishiga sharoit yaratib, hududiy mehnat bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchiidan, klasterlarning barqarorligi institutsional muhitning sifati bilan bevosita bog'liq. Davlat tomonidan infratuzilma, moliyalashtirish, soliq va boshqa rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi xususiy sektor tashabbuslarini kuchaytiradi. Mazkur xulosalar mavjud tadqiqot materiallaridagi klaster yondashuvlari bilan hamohang bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy tizimni rivojlantirishda iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiy klaster hamda qo'llab-quvvatlovchi resurs-infratuzilma klasterlari hududiy transformatsiya samaradorligini mustahkamlovchi yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, hududlarni bir xil model asosida emas, balki mavjud institutsional va iqtisodiy salohiyatiga mos differensial strategiya asosida rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Bu yondashuv klasterlash siyosatiga ham bevosita tatbiq etilishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari klasterlashni mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Taklif etilgan integral baholash modeli hududlarning klasterlash salohiyatini aniqlash, mavjud muammolarni guruhlash va investitsiya hamda davlat qo'llab-quvvatlash choralari differensiallashtirish imkonini beradi. Shu asosda mintaqaviy klaster siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, biznes va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish, kichik biznesni klaster qiymat zanjirlariga jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda klaster faoliyatining integral samaradorlik indeksini muntazam monitoring qilishni taklif etish mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlaridan foydalanish hududiy iqtisodiy salohiyatni samarali safarbar etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish, investitsion va





innovatsion faollikni oshirishning muhim vositasi ekanligini ko'rsatdi. Klasterlash jarayonini faqat korxonalarni hududiy jihatdan birlashtirish sifatida emas, balki biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, davlat organlari va infratuzilma tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi kompleks mexanizm sifatida tashkil etish zarur. Tahlil asosida klasterlarning samaradorligini baholashda iqtisodiy o'sish, investitsion faollik, innovatsion salohiyat, bandlik va institutsional rivojlanish ko'rsatkichlarini birgalikda hisobga olish taklif etildi. Shu asosda ishlab chiqilgan integral baholash yondashuvi mintaqalarning klasterlash darajasini aniqlash, hududlar o'rtasidagi farqlarni baholash va klaster siyosatini differensiallashtirish imkonini beradi. Tadqiqotda klasterlashning hududiy yaqinlik, ixtisoslashuv, kooperatsiya, raqobat, innovatsionlik, integratsiya, resurslardan samarali foydalanish va barqarorlik tamoyillari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlari sifatida asoslandi. Ayniqsa, biznes va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini klaster qiymat zanjirlariga jalb qilish hamda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish klasterlarning uzoq muddatli samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada mintaqaviy klasterlashni takomillashtirishning "hududiy salohiyat → klaster shakllanishi → kooperatsiya → innovatsiya → investitsiya → ishlab chiqarish va eksport → bandlik va daromad → barqaror iqtisodiy rivojlanish" ketma-ketligiga asoslangan konseptual modeli taklif etildi. Mazkur model klasterlash siyosatini hududlarning o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlari va ixtisoslashuviga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Umuman olganda, klasterlash mexanizmlarini takomillashtirish mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion faoliyatni kengaytirish, mahalliy qiymat zanjirlarini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali mintaqa iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashning muhim strategik yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kosfeld R., Titze M., et al. Research and development intensive clusters and regional competitiveness. *Growth and Change*, 2023.
2. Speldekamp D., Knoben J., Saka-Helmhout A. Reconciling Perspectives on Clusters: An Integrative Review and Research Agenda. *International Journal of Management Reviews*, 2020.
3. Rodionova I., Krejdenko T., Mądry C. Cluster Policy in the Russian Federation: A Case Study of Industrial Clusters. *Quaestiones Geographicae*, 2018, Vol. 37(2), pp. 61–75.
4. Колчинская Е. Э., Лимонов Л. Э., Степанова Е. С. Роль кластеров и кластерной политики в развитии российских регионов: постановка проблемы и возможный подход к оценке. *Известия Русского географического общества*, 2018, Т. 150, №3.
5. The evolution of cluster initiatives in Russia: the impacts of policy, life-time, proximity and innovative environment. *Foresight*, 2017, Vol. 19(2), pp. 87–120.





6. Gromova E.A. Model of legal regulation of clusters in the Russian Federation. Russian Journal of Economics and Law, 2024, Vol. 18(1), pp. 121–133.
7. OECD. OECD Regional Outlook 2023: A Policy Roadmap to Address Regional Inequalities Now and in the Future. Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshankulov S. Iqtisodiyotning rivojlanishida raqobat muhiti va klasterlarning o'rne. 2024.
9. Urinboev U.O. Cluster Development in Uzbekistan's Economy: Production Volume, Investment Flows, and Export Dynamics (2022–2024). American Journal of Business Management, Economics and Banking, 2025.
10. O'rinboyev U.O. O'zbekiston qishloq xo'jaligida agroklastar tizimining shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ta'siri (2018–2024-yillar tahlili). 2025.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**